

## JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATGA TA'SIR O'TKAZUVCHI SALBIY OMILLAR

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi 1- kurs talabasi  
Komiljonov Ozodbek Maxsudjon o'g'li*

**Anontatsiya:** Zamonaviy hayotda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga zarar yetkazuvchi omillar oldingi davrlarga nisbatan ko'plab uchraydi. Bunday deformatsiyalar ko'pincha shaxsning har xil ijtimoiy yoki boshqa guruhlarning ongida turli xil ko'rinish va shakllarda qonunlarga yetarlicha ahamiyat bermaslik va xurmatsizlikdan yuritib to uni to'liq e'tiborsiz qoldirish va rad etishda kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy negilizm, huquqiy idealizm, huquqiy agnostizm, huquqiy relyativizm, huquqiy infantilizm, huquqiy tarbiya

Jamiyatda insonlar ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekanlar, ular o'z manfaatlari yo'lida turli xil huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar. Ana shu munosabatlarni amalga oshirayotganda ular o'z ongiga tayangan holda ijtimoiy va tabiiy borliqni o'rganadilar. Shu jihatdan olganda tegishli adabiyotlarda siyosiy, axloqiy, estetik, huquqiy, diniy va shunga o'xshash bir qancha onglar mavjud. Huquqiy ong ham ana shu ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Huquqiy ong – bu ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular va tasavvurlar yig'indisidir. Huquqiy ong huquqning jamiyat ehtiyojlarini ifodalashda, huquqni ijtimoiy voqelikka tadbqiq etishda hamda shaxslarning xulq-atvori huquq normalariga qay darajada mos kelishini tushunib olishga ko'maklashadi va baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Kishilar huquqiy ongiga tayangan holda ijtimoiy munosabatlarga amalga oshirishi ularning huquqiy madaniyatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmaslik, huquqiy normalarni bajarish, huquqiy talablarni bilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish kishining huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq.

Jamiyat huquqiy taraqqiyotning cho'qqisiga erishishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaitirish orqali yetishadi. Bu o'rinda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga zarar yetkazuvchi omillarga qarshi kurash orqali erishiladi. Ijtimoiy hayotda huquqiy ongga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida huquqiy negilizm va huquqiy idealizm mavjud.

Huquqiy negilizm – jamiyat huquqiy taraqqiyotining tizimli va maqsadga muvofiq rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diruvchi to'siq sifatida qaraladi. Huquqiy negilizm shaxslarning, ijtimoiy guruhlarining muayyan huquqiy qadriyatlarga, normalarga, belgilangan tartib-qoidalariga salbiy munosabatini, mensimaslik va ishonchsizlik kayfiyatini ifodalaydi. Huquqiy negilizm holatidagi shaxslarda qonunlarni nazar-pisand qilmaslik, ularni ochiqdan-ochiq inkor qilish holatlari kuzatiladi.

Huquqiy idealizm esa huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuborilishi bilan ojaralib turadigan huquqiy ong holati tushuniladi. Bu ong ta'siridagi insonlar qonunlarga barcha masalalarni, muammolarni bir zumda hal qilishga qodir mo'jizakor kuchga ega bo'lgan hujjat sifatida qaraladi. Yuqoridagi salbiy ta'sir qiluvchi omillar huquqiy madaniyatni buzulishiga olib keladi. Huquqiy madaniyatning buzilgan shakllariga quyidagilar kiradi. Bular: huquqiy agnostizm, huquqiy relyativizm, huquqiy infantilizm.

Huquqiy agnostizm – huquqning mohiyati va ijtimoiy vazifasini noto'g'ri tushunish.

Huquqiy relyativizm - huquqlarni tan olish, majburiyatlarni bajarmaslik, obyektiv va subyektiv huquqni bir biriga qarama-qarshi qo'yish.

Huquqiy infantilizm – qonunlarni asl ma'nosini yaxshi bilmaslik va uni boshqa shaxslarga noto'g'ri ma'noda yetkazish.

Yuqoridagilarni hammasi yoshlar faoliyatida ko'p uchraydi. Bu muammolarni oldini olishda ya'ni jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda nafaqat yoshlarga butun bir jamiyat a'zolariga huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyati va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq, ta'sir etish orqali singdirib borish jarayoni nazarda tutiladi. Bu shuni anglatadiki, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o'zaro aloqadorlikda bir maqsadga mustahkam huquqiy demokratik davlatga erishish yo'lidagi pozitsiyasi sifatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish asosiy g'oya sifatida qaraladi. Buning uchun aholi orasida huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik jihatdan amaliy ko'rgazmali vositalar yordamida doimiy ravishda huquqiy bilimlardan va qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatga salbiy ta'sir ko'rsayaotgan omillarga qarshi kurash maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish" to'g'risida 2019-yil 9-yanvardagi 56 18-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga asosan Adliya vazirligiga huquqiy targ'ibotni tashkil qilish borasida bir qator vazifalar yuklatildi. Yana aytish mumkinki, "2022-2026-

yillarga mo'ljlanlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonining 2-yo'nalishi "Mamlakatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" yuzasidan ham bir qancha maqsadlar belgilandi. Bularning hammasi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi huquqiy qoidalar sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat a'zolari huquq normalariga va huquqiy islohotlarga befarq bo'lmagan holda ularni o'rganishi va ularga rioya qilishi natijasida jamiyat a'zolarining asosiy maqsadlaridan biri huquqiy demokratik davlat qurish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangilangan Konstitusiyamiz uchinchi renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqidan. O'zbekiston, 2023.
2. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-sonli farmoni. 09.01.2019 yil.
3. "2022-2026-yillarga mo'ljlanlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli farmoni 28.01.2022 yil.
4. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi ( darslilik ) Toshkent "Adolat" 2018.